

**YOSHLARNI HARBIY VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA
TARBIYASIDA HARBIY-SPORT MUSOBAQALARINI TASHKILLASH VA
O'TKAZISHNI AHAMIYATI**

Qodirov Samandar Bobir o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Harbiy ta'lif fakulteti kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqola Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda harbiy sport musobaqalarini tashkillash va o'tkazish orqali jismonan sog'lom ma'nani teran, odob-axloq va umumbashariy g'oyalari ruhida kamol topgan bilimli dono, avlodni tarbiyalash, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish haqiqiy vatanparvar shaxs sifatida voyaga yetishda harbiy sport musobaqalarini o'tkazishning ahamiyati ahamiyati haqida bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Vatanparvar, musobaqa, harbiy sport, chora tadbirlar.*

Respublikamiz ijtimoiy taraqqiyotining hozirgi bosqichida jismonan sog`lom, ma`nan, teran, axloq-odob va umumbashariy g`oyalari ruhida kamol topgan, bilimli, dono avlodni tarbiyalash, milliy genofondni sog`lomlashtirish masalasi davlat siyosati rajasiga ko`tarildi. Yoshlar o`rtasida sportga bo`lgan qiziqishni orttirish, sportni ommaviylashtirish davlatimiz rahbariyati oldidagi birinchi navbatda bajariladigan ishlar darajasiga ko`tarildi. Bugungi kunda mamlakatimizda sog`lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro`yobga chiqarish, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to`liq javob beradigan, har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga yetkazish uchun sharsharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo`yicha keng ko`lamli, aniq yo`naltirilgan choratadbirlar amalga oshirilmoqda.

Harbiy sport musobaqasi bu Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'zlashtirishni, to'garak va o'quv mashg'ulotlari ishlarining yakunini o'tkazish demakdir.

Har bir musobaqa tasdiqlangan dastur shartlari asosida o'tkazilishi kerak. Bu dastur musobaqa o'tkazishning asosiy hujjati bo'lib hisoblanadi. Musobaqa dasturi musobaqa o'tkazilishdan ikki oy avval direktor tomonidan tasdiqlanadi. Dastur tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi va unga musobaqa davomida ham musobaqadan keyin ham o'zgartirish kiritish qat'iyan ta'qiqlanadi. Musobaqa dasturi odatda 10 ta bo'limdan iborat bo'ladi:

- ushbu musobaqaning maqsad va vazifalari yoritib beriladi;
- musobaqani o'tkazish joyi va vaqtini ko'rsatiladi;
- musobaqa rahbariyati haqida ma'lumotlar;
- musobaqani moddiy texnik jihatdan ta'minlash kimga yuklatilganligi;
- musobaqa qatnashchilarini va komandalar tarkibi;
- musobaqa dasturi;
- musobaqani o'tkazish shartlari;
- birinchilikni va shaxsiy musobaqa g'oliblarini aniqlash tartibi;
- qatnashchilarini mukofotlash tartibi;
- musobaqalarda qatnashish uchun arizalar berish tartibi ko'rsatib o'tiladi.

Musobaqalarda ko'rsatiladigan natijalar, eng avvalo, qatnashchilarning musobaqaga tayyorgarligi sifatlariga bog'liq bo'ladi.

Musobaqalar boshlanishidan ikki oy avval qatnashuvchilar tomonidan musobaqa shartlari, har bir sport turi harbiy «Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlaridagi normativlar ko'rib chiqilishi kerak bo'ladi. Musobaqa qatnashchilari uchun har bir sport turi doimiy, haftasiga 2-3 marotaba mashg'ulotlar tashkil etilish mumkin.

Komanda tarkibini tuzish va musobaqaga ariza topshirishdan bir haftadan oldinroq yakuniy sinov nazoratini o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Bu sinov nazorati natijalariga asoslanib, komandani asosiy tarkibini aniqlash mumkin. Musobaqalarga tayyorlanish davrida sport inventarlari jihozlarini, texnika va qurol-yaroqlarni yaxshi holatga keltirish juda muhimdir.

Musobaqalar sifati va ularni tartibli o'tishi, ularning o'quv moddiy bazasini puxta tayyorlashga bog'liq bo'ladi. Musobaqa qayerda bo'lishi, yugurish yo'lakchalarini kim va qayerda tayyorlashi, qaysi tirda o'q otish o'tkazilishi va shunga o'xshash barcha savollar aniq va ravshan belgilab olinishi kerak. Bundan tashqari u yoki bu sport inshootini sportchilarni qabul qilish imkoniyatlarini ham to'g'ri belgilash juda muhimdir. Masalan, granata uloqtirish maydonchasiga faqat 1 kishi joylashadi. Mashqni bajarish uchun zarur bo'lgan vaqt (1 imkoniyat) 1 daqiqa. Agar dasturda 2 ta imkoniyatdan foydalanish ko'rsatilgan bo'lsa, o'z-o'zidan mashqni bajarish uchun bo'lgan vaqt ham 2 barobar ko'payadi, ya'ni 2 daqiqa bo'ladi. Komanda tarkibi 20 kishidan iborat. Shunday ekan, komandaga bu mashqni bajarishi uchun 40 daqiqa kerak bo'ladi. Komandalar almashishiga, tayyorlanishga yana 5 daqiqa ajratiladi. Shunday qilib, granata uloqtirish harbiy 4 ta komanda musobaqasi uchun umumiy hisobda 3 soat vaqt kerak bo'ladi.

Mana shunday hisoblarni har bir sport turi bo'yicha bo'ladigan musobaqalar uchun ham tuzish kerak. Bu musobaqalarni to'g'ri tashkil etishga va o'z vaqtida o'tkazishga yordam beradi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan ommaviy- mudofaa ishlarning shakl va uslublari turli tumandir. Bu ishlarni tashkil etish va o'tkazishga harbiy ta'lim o'qituvchilari ijodiy tarzda yondashishlari kerak. Chunki, o'quvchi yoshlarni harbiy bilimlar bilan qurollantirish, ularda harbiy kasblarni egallashga bo'lgan ishtiyoqni tarbiyalash, harbiy-sport turlarini yoshlarni orasida keng tashviqot qilish, bu tadbirlar yordamida ularda O'zbekistonga, uning Qurolli Kuchlariga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini tarbiyalash demakdir.

Prezidentimiz, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Milliy armiyamiz ming-minglab o'g'onlарimiz uchun fidoyilik, mardlik va haqiqiy vatanparvarlik maktabi bo'lishi kerak". Albatta, bunday maqsadlarga yetish, rejalashtirilgan natijalarga erishish o'qituvchilardan, ommaviy mudofaa ishlari tashkilotchilaridan katta kuch-g'ayrat, bilimdonlik, yuksak tashkilotchilik sifatlari bo'lishini talab qiladi. O'z ishiga ijodiy tarzda yondashib, bu tadbirlarni turli uslub va shakllarini amaliyatga joriy etib, yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash, davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim vazifalardan biri ekanligini chuqur his etgan o'qituvchilar albatta, o'z oldilariga qo'yilgan bu sharaflı vazifalarni bajarilishining uddasidan chiqadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent 2017 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mudofaa to'g'risida"gi Qonuni,
3. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonuni
4. O'zbekiston Respublikasining Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiysi,